

BADIIY ASARDA... KOMPOZITSIYA VA SUJET

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi

1-kurs102-guruh talabasi

Jo‘rayeva Malika Shoymardon qizi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kompozitsiya va sujet haqida ma‘lumot berilgan. Misollar orqali batafsil bayon etilgan. Xulosalar bilan yaxshi yondoshilgan.*

Kalit so‘zlar: *Kompozitsiya, sujet, “Ulug‘bek xazinasi” asari, “Abulfayzxon” dramasi, paradigma, yadro, Aliqushchi, Ulfat, Nizomul Xomush, kulminatsiya, tugun, ekspozitsiya*

Abstract: *This article provides information on composition and subject matter. It is described in detail with the help of examples. Well approached with conclusions.*

Key words: *Composition, subject, "Treasure of Ulugbek", drama "Abulfayzkhan", paradigm, core, Aliqushchi, Ulfat, Nizamul Khomush, climax, node, exposition*

АННОТАЦИЯ: *В этой статье представлена информация о составе и тематике. Подробно описано с помощью примеров. Хорошо подошёл к выводам.*

Ключевые слова: *Композиция, сюжет, «Сокровища Улугбека», драма «Абулфайзхан», парадигма, ядро, Аликушчи, Ульфат, Низамуль Хомуш, кульминация, узел, экспозиция*

Avvalo, kompozitsiya va sujet nima ekanligi va badiiy asarda nima uchun qo‘llanilishiga to‘xtab o‘tadigan bo‘lsak, kompozitsiya bu lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, tuzilish, birlashish, bog‘lanish degan ma‘noni anglatadi. Kompozitsiya badiiy asarning yadrosidan biri hisoblanib, badiiy asarning tuzilishidir. Kompozitsiyaning yaxlitligi asarning asosiy shartidir. Asardagi ortiqcha personaj, epizod va detallar asarning mavqeiga putur yetkazadi va bo‘lmasligi kerak. Kompozitsiya asarning shunchaki tuzilishi emas, shu tuzilishning maqsadi va nima asosida tuzilganligidir. Kompozitsiyaning muhim tomonidan biri tanlangan obraz va hodisalar voqeaga muvofiqligi yoki yo‘qligini yozuvchining bildirmoqchi bo‘lgan fikriga nisbatan aniqlaydi va shu bilan asarning mazmunining aniqligini ko‘rsatib beradi.

Endi, sujetga keladigan bo‘lsak, sujet ham badiiy asarda muhim o‘rin egallaydi. Sujet ham lotinchadan olingan bo‘lib, predmet, buyum, narsa degan ma‘nolarni anglatadi. Badiiy asar mazmunini ifodaydigan, bir-bir bilan o‘zaro aloqadorlikda kehadigan, qahramonlar o‘rtasidagi aloqalardan tarkib topgan voqealar paradigmasidir. Badiiy asarda tasvirlangan voqealar tizimining o‘zaro munosabatiga ko‘ra sujet asosan xronikal va konsentrik turlarga bo‘linadi, Xronikal sujetda voqealar

orasidagi vaqt munosabat yetakchilik qiladi. Konsentrik sujetda esa asarda tasvirlangan voqealar orasidagi sabab-natija muhim ahamiyat kasb etadi.

Sujetning ekspozitsiya, kulminatsiya, tugun, voqealar rivoji kabi unsurlari mavjud. Tugun bu o'quvchi uchun majhul bo'lgan voqealar majmuidir. Kulminatsiya esa o'quvchining qalbini larzaga soladigan voqealar tizimi. Ekspozitsiya voqealar ro'y beradigan zamon va makon, personajlar to'g'risidagi muallif ma'lumotlari hisoblanadi. Voqealar rivoji nomlanishidan bilinib, ko'rinib turibdiki voqealarning tugallanishi qanday kechgani bilan o'quvchini o'ziga jalb etadi.

Masalan, Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" asarini oladigan bo'lsak, yozuvchi juda mahorat bilan yondoshgan desak noto'g'ri bo'lmaydi. "Ulug'bek xazinasi" asari qalbni larzaga soladigan sujetlari bilan o'quvchini o'ziga jalb etadi. Asarda Aliqushchi va Ulug'bek o'rtasidagi munosabat, vafodorlik kezi kelganda Ulug'bek o'g'lidan ko'rmagan yaxshiliklarni Aliqushchidan ko'radi va Aliqushchini o'g'lim deb ataydi. Mening fikrimcha, Ulug'bekning farzandlari mehsiz bo'lishiga, Ulug'bekning o'zi sababchi deb bilaman. Chunki, bolalariga yoshlikda e'tibor bermaganligi, ayniqsa, Abdulatifni yoshlikdan Gavharshodbegimning qo'lida o'sganligi shu sabablar ham Abdulatifning otasiga nisbatdan mehsiz, qandaydir da'vat bilan yashashga sababchi bo'lgan. Gavharshodbegim ham o'z nevarasini taxt uchun o'g'liga qarshi qayragani va "Tuxt" hattoki o'z qondoshlarini bir-biriga nisbatdan nifoq urug'larini sochgani, o'sha davrning mudhish holatlaridan biri hisoblanadi. Bunga misol qilib, Abdurauf Fitratning "Abulfayzxon" dramasida Ulfat tomonidan aytilgan "Podshohlik — qon bilan sug'orilatug'on bir og'ochdir"- deb aytgani ham bejiz emas. Lekin o'sha davrning taqsinlashga sazovor bo'ladigan odamlari ham bor. Bir Aliqushchining ustoz uchun qilgan sa'yi harakati, ilm yo'lida o'z umrini ayamagani, ilm farzandi bo'lganligi asarning yaqqol namunasidir. Asarda kulminatsiya joyi bu Abdulatif tomonidan otasining o'ldirilishi o'quvchini qalbini larzaga keltiradi. Ayniqsa, Abbos Ulug'bekni o'ltirish uchun kelganda boshiga qilichni tashlamoqchi bo'lganda, Ulug'bekning hech bo'lmasa namozimni ado etib olay degan gaplari ham insoniy fazilatlarini ko'rsatib turibdi. Boshiga qilich kelsa ham uning bu gaplari odamni junbushga keltiradi, dinini ulug'lagani shu birgina so'zidan darak berib turibdi. Tangani ikki tomoni bo'lgandek, o'sha davrda dinni obro'sizlantiradigan odamlar ham bo'lgan. Bunga Nizomul Xomushni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Xulosa. Mana ko'rib turganingizdek kompozitsiya va sujet badiiy asarning yadrosini, asosini tashkil etib turibdi. Buni misollar yordamida batafsil tushuntirishga harakat qildik. Kompozitsiya butun bir asarning tuzilishini tashkil etsa, sujet voqealar ketma-ketligi tuzilishini tashkil etmoqda. Bundan shunday xulosaga kelishimiz mumkin ekanki, asarning dunyoga kelishida kompozitsiya va sujet muhim rol o'ynar ekan.

FOYDALANILGAN SAYTLAR:

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Kompozitsiya>
2. <https://uz.scienceforming.com/10585112-what-are-the-elements-of-composition-in-literary-criticism>
3. <https://hozir.org/reja-syujet-haqida-tushuncha-va-uning-tarifi.html>
4. <https://ppt-online.org/1253644?ysclid=Iq9p6vejqd106306813>
5. Foydalanilgan adabiyotlar.
6. “УлуҒбек хазинаси” Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти 1994й. Тошкент
7. “Abulfayzxon” dramasi Toshkent “Ma’naviyat” 2000-y
8. Мамаджонов, Р. (2023). “VII-VIII ASRLARDA ARAB XALIFALIGI ISTILOSIGA QARSHI KURASHDA MAHALLIY HUKMDORLARNING O‘RNI VA ROLI” MAVZUSIGA OID INGLIZ TILLI TADQIQOTLAR TAHLILI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/5).
9. Akramovich, M. R. (2023). PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF PROFESSIONAL DIRECTION OF YOUNG PEOPLE.
10. Akramovich, M. R. (2023). Patriotism and its Importance in Involving Young People in the Armed Forces. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 17, 31-33.
11. Мамажонов, Р. А., Тилаволдиев, Ш. Х., & Тўхтаназаров, И. И. (2020). ЁШЛАРНИНГ ҲАРБИЙ-ВАТАНПАРВАРЛИК ТАРБИЯСИДА ЖАНГОВАР ВА МЕҲНАТ ШУХРАТИ МУЗЕЙЛАРИНИНГ ЎРНИ. Интернаука, (21-3), 74-75.
12. Мамажонов, Р. А., & Ахунов, И. И. (2020). ҲАРБИЙ-ВАТАНПАРВАРЛИК ТАРБИЯСИДА БАДИИЙ АДАБИЁТ, КИНО, ТЕАТР ВА ТАСВИРИЙ САНЪАТНИНГ АҲАМИЯТИ. Интернаука, (22-3), 64-66.
13. Rahimova, B. (2023). SHE’RIYAT JOZIBASI YOXUD JOZIBALI SHE’RIYAT. Gospodarka i Innowacje., 41, 21-24.
14. Rahimova, B. (2022). MUMTOZ ADABIYOTGA SHAYDOLIK. Development of pedagogical technologies in modern sciences, 1(4), 33-37.
15. Раҳимова, Б. (2022, April). ЭЗГУЛИКНИ КУЙЛОВЧИ ШЕЪРИЯТ. In E Conference Zone (pp. 173-175).
16. Rahimova, B. (2021). Synthesis of Traditionality and Distinctiveness in Literary Heritage. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 82-89.



17. RAHIMOVA, B. (2021). BADIY ADABIYOTDA IJODKOR SHAXS OBRAZI TALQINLARI. FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI, 1(02), 17-28.